

## KOMIL INSONNI TARBIYALASHDA AJDODLAR MEROSI VA UCHINCHI

### RENESSANSNING O‘RNI

Yusupov Alijon Tog‘aevich

Toshkent viloyati Angren shahar Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi bo‘limi rahbari

Bugungi kunda ko‘p millatli xalqimiz, Vatanimiz taraqqiyoti uchun, O‘zbekistonning yangi Uyg‘onish davrini yaratish yo‘lida belini mahkam bog‘lab, fidokorona mehnat qilmoqda. Bu yo‘lda ulkan orzu-umidlar, katta rejalar bilan safimizga qo‘shilayotgan yoshlarimiz — asosiy tayanchimiz va suyanchimizdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Yoshlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruzasidan.

#### Annotatsiya

Maqolada ulug‘ ajdodlarimizni ma‘naviy xazinalari bilan Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan “Uchinchi renessans”ning bog‘liklari tahlil qilib berilgan. Shuningdek eng katta ma‘naviy xazina bu ta‘lim-tarbiya va uning asosi bo‘lmish ta‘lim-tarbiyani zamon ruhiga moslashtirishning innovatsion yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** ta‘lim, uchinchi renessans, ma‘naviy xazina, yangi strategiya, innovatsiya.

## THE HERITAGE OF THE ANCESTORS AND THE ROLE OF THE THIRD RENAISSANCE IN THE EDUCATION OF THE PERFECT MAN

#### Abstract

The article analyzes the connections between our great ancestors and their spiritual treasures of the "Third Renaissance" in New Uzbekistan. Also, the greatest spiritual treasure is education and innovative ways of adapting education to the spirit of the times, which is its basis, are shown.

**Keywords:** education, third renaissance, spiritual treasure, new strategy, innovation.

So‘nggi yillarda respublikamizda ma‘naviy merosimiz, tariximiz, ajdodlarimizning tarbiyaviy qadriyatlarini o‘rganishimizga keng yo‘l ochildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ta‘kidlaganidek, “Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, Xudo xohlasa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz ham albatta bo‘ladi”.

Darhaqiqat, ajdodlarimiz yoshlar ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratgan. Ularning ta'kidlashicha, yoshlikda olingan bilim kelajak uchun qo'yilgan tamal toshidir.

Bu borada ulug' ajdodlarimizning asarlari, hikmatli so'zlari va ma'naviy merosi bugungi kun yoshlari uchun benazir ta'lim-tarbiya quvvati bo'lib xizmat qiladi. Chunki O'rta Osiyo zaminida dunyo ilm-fan "beshigi"ni tebratgan ulug' zotlar yurtimizda juda ko'plab yetishib chiqqan va mana shu zotlardan biri Abu Nasr Forobiy yoshlar ta'lim-tarbiyasi to'g'risida fikr bildirar ekag, u ikki narsani inson aqliga xosligini ajratgan:

- 1) Tabiatdan olingan tabiiy jumboqlar.
- 2) Ta'lim-tarbiya natijasida erishilgan iroda va istakka mos intilish.

Allomaning qayd etishicha, tabiiy qobiliyat bilan birgalikda yoshlarda ta'lim-tarbiyaning ham ahamiyati beqiyos ekan. Bu esa isbot talab qilmaydigan haqiqatdir.

Bu sohada ibn Sinoning pedagogik merosi tahsinga sazovor. Uning ta'kidlashicha, yoshlar ta'lim-tarbiyasi tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- 1) Aqliy tarbiya.
- 2) Estetik tarbiya.
- 3) Jismoniy tarbiya.
4. Axloqiy tarbiya.
5. Hunar o'rgatish.

Yuqoridagi tarbiya turlarini yoshlar ongiga singdirishda o'qituvchi, tarbiyachi bilan bir qatorda, oilada ota-onalarning ham o'rni muhim hisoblanadi.

Ibn Sino qoldirgan ushbu tarbiyaviy meros bugungi kunda yoshlarni har tomonlama etuk, barkamol bo'lib shakllanishlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Buyuk mutafakkirlardan biri, Abu Rayhon Beruniyning ta'kidlashicha, ta'lim jarayonida shaxsiy namuna, shaxsiy o'rnak hamda ko'rsatmalilik (ko'rgazmalilik) muhim ahamiyatga ega. Ta'lim jarayonidagi bunday xususiyatlar yoshlarning kuzatish qobiliyatini rivojlantiradi, tasavvuri va tafakkurini kengaytiradi.

Ibn Sinoning yoshlar tarbiyasiga oid fikrlariga qo'shimcha tarzda Beruniy yoshlarda mehnatsevarlikni tarbiyalash zarurligini alohida ta'kidlagan.

Beruniy o'z asarlarida yoshlar bilan amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiya jarayonida quyidagi tamoyillarga amal qilish lozimligini uqtirgan. Jumladan:

ta'limning ongliligi;

ko'rgazmalilik;

tizimlilik;

izchillik;

dalillarga asoslanganlik;

nazariya bilan amaliyotning bog'liqligi.

O'rta asrlarda Alisher Navoiy yoshlar ta'lim-tarbiyasida til o'rganishning muhimligini ta'kidlab o'tgan. U o'z asarlarida tilning ulug'ligi, tilning millat gavhari ekanligini singdirgan.

XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshlarida Muqumiy, Furqat, Zavqiy, Ahmad Donish, Shermuhammad Avazboy o'g'li Munis kabi ma'rifatparvarlar yoshlar ta'lim-tarbiyasi, millat ravnaqi, davlat va jamiyat kelajagi to'g'risida pedagogik asarlar yozib, ularning ongiga kelajakka ishonch uyg'otganlar.

XX asrning boshlarida Mamudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abduraxmonov, Abdulla Qodiriy, Elbek, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Fitrat va Cho'lpon singari jadidchilar hozirgi ta'lim-tarbiya tizimining shakllanishi va rivojlanishiga ulkan hissa qo'shganlar.

Ularning asosiy g'oyalari: birinchidan, diniy va dunyoviy ilmlarni mukammal o'qitadigan yangi jadid maktablari tashkil etib, millatning kelajagi bo'lgan yoshlarni barkamol qilib tarbiyalash, ikkinchidan, gazeta, jurnallar tashkil etib, o'lka xalqi ongini oshirish, uchinchidan, teatr truppalari tashkil etib, xalqning nomaqbul illatlarini fosh etib, madaniy darajasini oshirishni maqsad qilib olganlar.

Jadidchilar asosan quyidagi masalalarni hal qilishga harakat qilganlar:

diniy taassuf va fanatizmga qarshi kurash;

feodal davri maorifini isloh qilish;

yangi o'zbek adabiy tilini ishlab chiqish, o'zbek xalqiga tushunarli adabiyot va teatr yaratish;

xotin-qizlarni paranjidan ozod qilish va ularni maktablarda o'qitishni joriy qilish;

mustamlakachilik siyosatini isloh qilish.

Milliy uyg'onish davri pedagoglari o'z meroslarida yoshlarning har tomonlama etuk shaxs sifatida shakllanishlari uchun quyidagi tarbiya turlarini umumlashtirganlar:

- 1) Aqliy tarbiya.
- 2) Estetik tarbiya.
- 3) Jismoniy tarbiya.
- 4) Axloqiy tarbiya.
- 5) Kasb-hunar o'rgatish.
- 6) Ma'naviy tarbiya.

Jadidchilar tomonidan ishlab chiqilgan yuqoridagi tarbiya turlari O'rta asrlar mutafakkirlari tomonidan yaratilgan tarbiya turlariga hamohangdir.

Bugungi kunda yoshlar jadidchilar tomonidan erishilgan yutuqlar bilan faxrlanishi va ulardan ibrat olishi kerak. Shuningdek, ushbu oqim vakillari harakatlarining rivojlanishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatgan:

jadidchilarning ta'lim-tarbiyaga oid keng qamrovli ijodiyoti mehnatsevarlik zamirida bunyodga kelgan;

ular o'z xalqi va Vatanini sevgan, ardoqlagan hamda o'lka xalqini ham uni sevishga chorlagan; jadidchilar diniy va dunyoviy asarlarni mukammal o'rgangan;

ular o'lka tarixini chuqur o'rganganlar;

jadidchilar ayniqsa, tilshunoslik sohasida keng ko'lamlı ishlarni amalga oshirganlar.

Ko'ha moziy guvohki, dunyoni doimo g'oyalar boshqargan. G'oyalar esa mudom bilim, tafakkur va aql kuchiga suyangan. Bugungi rivojlanish shiddati tez, ilm ufqlari kengayib borayotgan zamonda, qolaversa, axborot vositalari taraqqiy etgan davrda g'oyalar uchun kurash ham birmuncha murakkabliklar hamda o'tkir fasohatni talab qilishi tayin.

Ammo insoniyat o'z tabiatiga ko'ra, baribir bir ezgu g'oyaga muhtojlik sezib yashaydi. Shu ma'noda, bugun yangi O'zbekiston tarixi zarvaraqlariga bitilayotgan bir jumla — "Uchinchi Renessans" tagmatnida ana shunday ulug' bir ezgulikni, buyuk bir kuchni anglash mumkin. Zero, renessans — uyg'onish demakdir. Ya'ni ilmiy uyg'onish, ma'rifatni anglash va shu asnoda asrlarga teng yillarni lahzalarda bosib o'tmoq demakdir. Bu jarayonni boshlab berish, uning poydevorini qo'yish esa kamdan-kam insonlarga nasib etgan. Buning uchun, avvalo, Alloh bergan inoyat, so'ngra millatni sevish, samimiy insonparvarlik tuyg'usi mujassam bo'lmog'i darkor insonda.

Bugun biz ana shunday qutlug' bir davrda, dunyoga yangi O'zbekiston nomi bilan tanilayotgan muqaddas zaminda uchinchi Renessansga poydevor qo'yiladigan zamonda yashamoqdamiz.

Har bir insonning o'z hayot falsafasi va yo'li bo'lganidek, har bir davlatning o'z taraqqiyot strategiyasi bo'ladi. Buni belgilashda esa faqat millat yetakchilarining salohiyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Mana, masalan, Singapurni olaylik. Ta'bir joiz bo'lsa, "yo'qdan bor bo'lgan" ushbu davlatni bugun dunyoning barcha joyida bilishadi, havas qilishadi. Holbuki, yarim asr muqaddam bu hudud mustaqillik e'lon qilganida Malayziya federatsiyasi unga qarshilik ham ko'rsatmagan edi. Hatto bitta boshog'riqdan qutulganiga xursand ham bo'lgan deyishadi. Bugun esa bu yerdagi yarqirab turgan shishavand ulkan binolarni ko'rib, yarim asr oldin faqat quruq joy bo'lganiga ishonmaysiz. Singapur bugun nafaqat iqtisodiyoti bilan, balki mo'jizaga boy maskanlari bilan dunyo sayyohlari xaritasining eng yorqin nuqtasiga aylandi.

Bu ulkan evrilishlar bir inson — haqiqiy ma'noda yetakchi Li Kuan Yu nomi bilan bog'liq. U davlat hamda fuqaro o'rtasida uzviylikni ta'minlash g'oyasini amalga oshira oldi va dunyo iqtisodiyotiga "Singapur mo'jizasi" degan atamani olib kirdi.

Yoki aytaylik, Xitoy iqtisodiyotida o'ziga xos inqilob yasagan Den Syaopin islohotlari esa bugun ushbu davlatni jahonning yetakchilari qatori olib chiqdi. Mayda ustaxonalar — kichik biznesni rag'batlantirishdan boshlangan islohotlar yirik kompaniyalar, korporatsiyalar darajasigacha ko'tarilib, jahon bozorini zabt etdi. Bugun dunyoning har bir mintaqasida — dasturxonadagi taomdan tortib, maishiy texnikagacha Xitoy mahsulotlarini ko'rish mumkin.

O'zbekistonda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlarda jahon afkor ommasi dunyo siyosatida yangi bir to'liqinni ko'rayotganini e'tirof etishmoqda. Bu to'liqinni harakatga keltirayotgan kuch esa Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan belgilangan mamlakatning yangi taraqqiyot yo'lidir.

Bu — biqiq iqtisodiyotdan shaffoflikka o'tgan, dunyoga keng quloq ochgan, har bir qadamida odamlar manfaatini ustuvor qo'ygan o'ziga xos taraqqiyot yo'lidir. Ta'bir joiz bo'lsa, uni beshta "I" — integratsiya, innovatsiya, inson kapitali, ishonch va iqtisodiy o'sishga asoslangan taraqqiyot formulasi, deb atash mumkin.

Bugungi kunda ushbu tamoyillarni bir nuqtada birlashtirgan yangilanishlarga hayotimizning ko'plab jabhalarida guvoh bo'lyapmiz. Masalan, klasterlar faoliyati bunga yaqqol misoldir. Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan milliy iqtisodiyotimizga tatbiq etilayotgan klasterlar faoliyatining samaralari xususida uzoq yozish mumkin. Ammo hozir uning birgina jihati, aynan ilm ahliga bergan afzalligini aytib o'tmoqchimiz. Bu millat bolalari va ularning ustozlari paxta dalalaridan qaytarib olinishida muhim rol o'ynadi.

Axir, kechagi kungacha emasmidi, o'qituvchiyu o'quvchilar, olimlaru talabalar, hatto ixtirochilar ham yilning chorak qismini paxta dalalarida o'tkazgani?! Bu vaqt ilmga sarf etilganida qanchadan-qancha kashfiyotlar bo'lishi mumkin edi-ku?! Ularning vaqti bilan birga yerga sochilgan qadri-chi?! Endi bu savollar faqat dilni ezadi, xolos. Afsuski, vaqtni orqaga qaytarib bo'lmaydi...

Xulosa qilib aytganda, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan bebaho didaktik meros yoshlar ta'lim-tarbiyasida muhim hisoblanadi. Bugungi kunda ular tomonidan yaratilgan ta'lim-tarbiya usullarini xorijiy ilg'or tajribalar bilan uyg'unlashtirish va ta'lim jarayonida unumli foydalanish ta'lim jarayonida kutilgan samaradorlikka erishish imkonini beradi. Bu, uchinchi Renessans poydevori mustahkamlanayotganiga yana bir dalil aslida

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz // Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 488 b.
2. Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. –Toshkent: Ma'naviyat, 2002. – 400 b.